

V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI ¹⁾



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 10 948 672,1 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, foyda hajmi 1 348 759,7 mln. so'm yoki 14,0 foizga oshdi.

2021-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	mln. so'm	
	<i>Foyda, zarar</i> (+, -)	<i>O'sish sur'ati,</i> <i>% da</i>
Jami	10 948 672,1	114,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	186,3	
Ishlab chiqaradigan sanoat	10 802 463,7	117,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	142 463,8	37,1
Qurilish	1 252,7	2,1 m.
Savdo	413,9	133,6
Tashish va saqlash	-6 994,8	-
Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	-2 187,6	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	586,8	82,6
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	7 609,1	50,2
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	73,3	108,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2,7	108,0
Boshqa turdagi xizmatlar	9,1	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2 793,1	2,1 m.

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga - 10 802 463,7 mln. so'mga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga - 142 463,8 mln. so'mga, professional, ilmiy va texnik faoliyat - 7 609,1 mln. so'mga, sog'liqni

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga - 2 793,1 mln. so'mga, qurilish korxonalariga 1 252,7 mln.so'mga, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar – 586,8 mln. so'mga, savdo korxonalariga esa 413,9 mln.so'mga to'g'ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalariga minus 2 187,6 mln.so'mga, tashish va saqlash korxonalariga minus 6 994,8 mln. so'mga to'g'ri keladi.

2021-yilning yanvar-may oylarini o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o'sishi "Navoiy KMK" DK (10 177 878,9 mln. so'm), O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalariga uyushmasi (277 483,3 mln. so'm), "O'zsanoatqurilishmateriallari uyushmasi" (257 720,5 mln. so'm), "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ (168 790,5 mln. so'm), "O'z kimyosanoat" AJ (73 281,0 mln. so'm), O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi" (7 814,2 mln. so'm), O'zcharmsanoat uyushmasi (7 335,8 mln. so'm), "O'zdonmahsulot" AJ (1 017,7 mln. so'm), O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi (319,3 mln. so'm) tarkibiga kiruvchi korxonalariga to'g'ri keldi.

2021-yil yanvar-may oylarida foydaning o'sish sur'ati yuqori bo'lgan vazirlik va idoralar

	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
"Navoiy KMK" DK	10 177 878,9	115,7
O'zbekiston elektronika sanoati korxonalariga uyushmasi	277 483,3	144,6
O'zsanoatqurilishmateriallari uyushmasi	257 720,5	140,5
"O'z kimyosanoat" AJ	73 281,0	7,7 m.
O'zagroservis AJ	2,7	108,0
O'zpaxtasanoat AJ	0,3	3,0 m.

Foydaning pasayishi "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ – 168 790,5 mln. so'm, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi – 7 814,2 mln. so'm, O'zcharmsanoat uyushmasi – 7 335,8 mln. so'm, "O'zdonmahsulot" AJ – 1 017,7 mln. so'm, O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi - 319,3 mln. so'mga yuqoridagi vazirlik va korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

**2021-yil yanvar-may oylarida foydaning
pasayishi yuqori bo'lgan vazirlik va idoralar**


	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	168 790,5	45,4
O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi	7 814,2	50,5
O'zcharmsanoat uyushmasi	7 335,8	43,7
“O'zdonmahsulot” AJ	1 017,7	65,8
O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi	319,3	93,2
O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	51,8	75,1
Dori-Darmon AJ	10,7	47,4

**2021-yil yanvar-may oylarida hududlar
kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

mln. so'm

	<i>Foyda, zarar (+, -)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Jami	10 948 672,1	114,0
Navoiy sh.	10 481 212,0	116,4
Zarafshon sh.	7 595,7	49,6
Karmana	441 805,6	79,6
Konimex	624,1	115,4
Qiziltepa	4 094,5	128,6
Navbahor	5 810,8	121,9
Nurota	186,3	-
Tomdi	-	-
Uchquduq	-	-
Xatirchi	7 343,1	43,7

2021-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari
(2020-yil yanvar-mayga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shahar 10 481 212 mln. so‘m (jami foydaning 95,7 %), Karmana tumani 441 805,6 mln. so‘m (jami foydaning 4,0 %), Zarafshon shahar 7 595,6 mln. so‘m (jami foydaning 0,1 %), Navbahor tumani 5 810,8 mln. so‘ (jami foydaning 0,1 %)ga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2021-yilning yanvar-may oylarida 9 ta korxonalar 40 556,4 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Uzbekistan Airports" AJ, "O‘zbekneftgaz" AJ, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2021-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar so‘mmasi	
		mln. so‘m	jamiga nisbatan, % da
Jami	9	40556,4	100,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1	26874,5	66,3
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	1	2251,5	5,5
Tashish va saqlash	4	7493,5	18,5
Ulgurji va chakana savdo	1	3715,9	9,2
Boshqa turdagi xizmatlar	2	221,0	0,5

2021-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi, % da</i>	<i>Zarar so'mmasi, mln. so'm</i>
Jami	9	100,0	40556,4
Navoiy shahar	4	81,5	33060,5
Zarafshon shahar	3	0,8	304,9
Karmana tumani	1	17,7	7188,6
Qiziltepa tumani	1	0,01	2,4

Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati¹⁾



2021-yil 1-iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 7 071 133,2 mln. so'mni tashkil qildi, shundan muddati o'tgan – 255 775,6 mln. so'm yoki jami qarzdorlikning 3,6 foizi.

Muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2020-yil 1-iyungacha nisbatan solishtirganimizda 13,7 marta oshgan bo'lsa, jami debitor qarzdorlik o'tgan yilga nisbatan 100,3 foizga oshgan.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahriga 4 399 909,9 mln. so'm (viloyat bo'yicha jami debitor qarzdorlikning 62,2 %) va Karmana tumaniga 2 403 184,5 mln. so'm (34,0 %) to'g'ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Konimex tumani 197,9 mln. so'm (0,003 %) Qiziltepa tumani 15 552,6 mln. so'm (0,2 %), Nurota tumani 11 570,4 mln. so'm (0,2 %) va Zarafshon shahri 21 936,7 mln. so'm (0,3 %) ga pastligini ko'rish mumkin.

¹⁾ Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

**2021-yil 1-iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mln.so'm</i>	<i>undan:</i>			<i>Muddati o'tgan qarzdor- likning ulushi, % da</i>
		<i>xaridor va buyurtma- chilar</i>	<i>etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar</i>	<i>ichki idoraviy</i>	
Jami	255 775,6	250 493,4	-	158,1	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	145 819,9	140 547,6	-	158,1	57,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	108 300,5	108 300,5	-	-	42,3
Qurilish	224,7	214,8	-	-	0,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1 430,5	1 430,5	-	-	0,6

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2021-yil 1-iyun holatiga jami debitor qarzdorligi 5 777 585,0 mln. so'm yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 81,7 foizini tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining eng ko'p debitor qarzdorligi "Navoiy KMK" DK 3 354 228,1 mln. so'm (58,0 %), "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ – 1 576 767,6 mln. so'm (27,3 %), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ 573 384,4 mln. so'm (9,9 %).

Debitor qarzdorlik "O'zpxatasanoat" AJ – 0,01% ga, (552,4 mln. so'm), "O'zbekneftgaz" AJ – 0,1% ga, (2976,0 mln. so'm), O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi – 0,2 % ga (9 308,9 mln. so'm), "O'zdonmahsulot" AJ – 0,4 % ga (27 434,0 mln. so'm), "Hududgazta'minot" AJ – 0,7 % ga (42 291,2 mln. so'm), kamaygan.

Muddati o'tgan debitor qarzdorlikni 2020-yil 1-iyunga nisbatan solishtirganimizda 14,7 martaga oshgan.

2021-yil 1-iyun holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 6 059 671,5 mln. so'm, undan muddati o'tgan – 549 248,0 mln. so'm yoki jami kreditor qarzdorlikning 9,1 % ni tashkil etdi.

Muddati o'tgan kreditor qarzdorlikni 2020-yil 1-iyunga nisbatan solishtirganimizda 21,4 martaga oshgan bo'lsa, jami kreditor qarzdorlik o'tgan yilga nisbatan 14,7 % ga oshgan.

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2021-yil 1-iyun holatiga jami kreditor qarzdorligi 4 667 744,9 mln. so'm yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 77,0 % ni tashkil qildi, shu jumladan muddati o'tgan – 542 291,2 mln. so'm yoki mos ravishda 21,8 martaga oshdi.

**2021-yil 1-iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mln. so'm</i>	<i>undan:</i>				<i>Mudda- ti o'tgan qarzdorlik- ning ulushi, % da</i>
		<i>etkazib beruvchi lar va pudrat- chilarga</i>	<i>byud- jetga to'lov- lar</i>	<i>davlat maqsadli fondlariga to'lovlar</i>	<i>ichki idoraviy</i>	
Jami	549 248,0	548 828,3	-	419,7	-	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	510185,3	509770,6	-	414,7	-	92,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	39057,7	39057,7	-	-	-	7,1
Qurilish	5,0	-	-	5,0	-	-

2021-yil 1-iyun holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 1 011 461,7 mln. so'mni tashkil qildi.

**Xo'jalik boshqaruv organlarida jami kreditor
qarzdorlikning debitorlikka nisbatan kamayishi**

	<i>Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi</i>	
	<i>mln. so'm</i>	<i>debitorga nisbatan, % da</i>
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	1 212 500,7	4,3 m.
“Navoiy KMK” DK	607 426,2	122,1
O'zbekiston elektronika sanoati korxonalarini uyushmasi	346043,1	180,8
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	68 948,0	113,7
“O'zdonmahsulot” AJ	21 616,0	4,7 m.
“Hududgazta'minot” AJ	15 606,1	158,5
O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi	10480,7	191,8
“O'zpxatasanoat” AJ	32,5	106,2

Jami kreditor qarzdorlikning debitordan kamayishi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ – 1 212 500,7 mln. so‘mga (4,3 m.), “Navoiy KMK” DK - 607 426,2 mln. so‘mga (122,1 %), “O‘zbekiston elektronika sanoati korxonalar uyushmasi” – 346 043,1 mln. so‘mga (180,8 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – 68 948,0 mln. so‘mga (113,7 %), “O‘zdonmahsulot” AJ – 21 616,0 mln. so‘mga (4,7 m.), "Hududgazta'minot" AJ – 15 606,1 mln. so‘mga (158,5%), “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi” – 10480,7 mln. so‘mga (191,8 %), "O‘zpaxtasanoat" AJ – 32,5 mln. so‘mga (106,2 %) kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumani 1 530 488,3 mln. so‘m (2,8 m.), Navbahor tumani 51 494,6 mln. so‘m (142,4 %), Zarafshon shahri 10 224,5 mln. so‘m (187,3%), Xatirchi tumani 9 811,2 mln. so‘m (127,2 %) va Qiziltepa tumani 7 332,8 mln. so‘m (189,2 %) ga to‘g‘ri keldi.